

FUTBOL O'YIN TEXNIKASI VA TAKTIKASI TASNIFI.

Orolova Bibixol Husniddin qizi.

Shaxrisabz davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat o'qituvchisi.

Ergasheva Zulayxo Sodiq qizi.

Shaxrisabz davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat 3 - kurs sirtqi bo'lim talabasi.

Annotatsiya: *Maqola mazmuni Futbol o'yini kelib chiqishi va bu o'yindagi turli xil taktik va textik usullar tasnifi haqida boradi.*

Kalit so'zlar: *Futbol, darvoza, texnika, taktika, jamoa, o'yin, harakatlar, mashg'ulot, musobaqa, o'yinchi.*

Kirish.

Futbol o'yini bu - oxoq to'pi degan ma'noni anglatadi. Futbolga o'xshash o'yinlar miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Futbol o'yini to'g'ri to'rtburchak shakldagi maydonda o'ynaladi. Har bir jamoada 11 tadan o'yinchi o'ynaydi. Futbol davozi 7, 32 - 2, 44m hieoblanadi. Futbolga o'xshash o'yinlar miloddan avvalgi Misr va Sharq mamlakatlarida paydo bo'lgan. Keyinchlik Yevropa o'ta boshlagan. 1858 - yilda Buyuk Britaniyadagi Cambridge universiteti o'qituvchilari Futbolning dastlabki zamonaviy qoidalarini ishlab chiqishgan. 1857 - yilda shu mamlakatda ilk Futbol klubi tashkil etilgan. 1863 - ilda Angliya Futbol uyushmasi tuzilib, Futbol qoidalari tasdiqlangan. 1896 - yilda Futbol olimpia o'yinlariga kiritilgan. 1904 - yilda xalqaro Futbol federatsiyasi tuzilgan.

O'zbekistonda 20 - asrdan boshlab zamonaviy Futbol qoidalari asosida o'yinlar o'tkazila boshlagan. 1912 - yilda Qo'qonda birinchi Futbol jamoasi tuzildi.

Asosiy qism.

Futbol o'yini jamoaviy o'yin hisoblanadi va kishilar salomatligini saqlash va mistahkamlash uchun xizmat qiladi. Shu jumladan bu o'yin chinakam muhlislarga ega va butun jahon tan olgan o'yinlar qatoriga kiradi desak aslo mubolag'o bo'lmaydi. Futbol o'yinida harakatlanish textikalari va taktikalari mavjud.

Yurishlar, yugurishlar, sakrashlar, burilishlar va shunga o'xshash turli xil harakatlar Futbolni qanchalik jozibador usullari hisoblanadi. Bundan tashqari maydon o'yinchisi texnikalari to'pga zarba berish, to'pni uzatish, qabul qilish, aldab o'tish shular jumlasidandir. Texnik harakatlarni mukammal tarzda bajara oladigan Futbolchi doimo yuksak marralarga erishaveradi. Shu tarzda Futbol o'yiniga qiziqqan va mashg'ulotlarga qatnasha boshlagan o'yinchilarga ham birinchi navbatda shu kabi harakatlar o'rgatiladi. Bu harakatlar orqali har bir o'yinchi mahorati oshadi va shakllana boradi. Shu sababli ham Futbol o'yini birinchi navbatda texnik va taktik usullar majmui hisoblanadi. Boshqa sport turlaridan farqli o'laroq Futbol o'yini serharakat o'yin hisoblanadi, sababi o'yin boshlangandan to tugagunga qadar o'yinchilar maydon bo'ylab harakat qilishadi. Bu esa kishi salomatligini mustahkamlaydi, o'pkaning nafas olish sig'imini kupaytiradi va oyoq mushaklarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli bu o'yinni qiziqish bilan barcha o'ynaydi va bu o'yin o'zining bir qancha muhlislariga ega hisoblanadi.

Futbol o'yinida taktik usullar bir qancha va jozibador hisoblanadi. Futbol o'yinining taktik mohiyati bu jamoaning g'olib bo'lishi uchun ishlatiladigan taktik harakatlar hisoblanadi. Taktika o'z o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, texnik usullar orqali taktik hujumlar amalga oshadi. Harakatlarni qay usulda amalga oshirish va uni raqib tomon yo'llash, raqibni chalg'itish, zarba berish va aldab o'tish kabi harakatlar taktik usullar orqali amalga oshadi. Taktik usullar jamoaviy va yakka holda bajariladi. Shu jumladan taktikani rejalashtirish va uni tadbiq etish murabbiyga ham bog'liq hisoblanadi. Raqib jamoa imkoniyatlaridan kelib chiqib taktika tuziladi. Taktik qism aloxida mahorat kasb etadi. Taktikasi va texnikasi yaxshi rivojlantirgan o'yinchi doimo g'alaba qozonaveradi. Taktika asosan aqlga borib taqalsa texnik usullar ko'proq jismoniy harakatlar orqali boradi. Sababi taktika bu asosiy ravishda g'alaga eltadigan yo'lni osonlashtirish hamda raqibni aldash, ortdaoldirish uchun qo'llaniladi. Shu sababli ham taktik rivojlanish bu jamoaga katta kuch va imkoniyat beradi.

Xulosa.

Futbol o'yini tarixi qadim o'tmishga borib taqaladi va hozirgi kungacha yildan yilga rivojlanib kelmoqda. Bu o'yin oddiy muhlislari, va ashaddiy ishqibozlari juda ko'p hisoblanadi. O'yin ishtiroqchilari esa shu muhlislardan ilhomlanib o'yinni yanadi qiziqarli qilishga harakat qilishadi. Bu harakatlar negizida esa tinimsiz mashaqqatlar, to'xtovshiz mashg'ulotlar yotadi. Har bir o'yinchi o'z ustida ishlaydi. Bu esa o'yinchida texnika va taktikani oshiradi. Hech birexnikasi yaxshi rivojlanmagan o'yinchi yaxshi ko'tarila olmaydi va o'yinlari ham sust bo'lib boraveradi. Hu sabab Futbol o'yini bilan shug'ullanayotgan va endi shug'ullanishni boshlagan o'yinchilarga birinchi navbatda o'yin texnikasi tushuntiriladi va o'rgatiladi, keyin esa bu texnikalar asosida taktika ribojlantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1) Nurimov R. I ., „Futbol nazariyasi va uslubiyati“.
- 2) Akramov R. A ., „Zamonaviy futbol asoslari “.
- 3) Talipjanov A. I ., „Futbol texnikasi“.